



Shavkat AXMEDOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti assistent o'qituvchisi
E-mail:shavkatakhmedov3838@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor T.Egamberdiyeva taqrizi asosida

PSYCHOLINGUISTIC CHARACTERISTICS OF THE COMMUNICATIVE PROCESS

Annotation

Psycholinguistics – psychological and linguistic aspects of speech activity and social and psychological factors of language use in the process of speech communication, individual speech thinking activity. The development of human speech activity. We can see such positive qualities as politeness taking the main place in smooth, successful and conflict-free communication.

Key words: Psycholinguistics, communication, speech, system-structure of language, speech ability, appeal.

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА КОММУНИКАТИВНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

Психолингвистика – психологические и лингвистические аспекты речевой деятельности и социально-психологические факторы использования языка в процессе речевого общения, индивидуальной речемыслительной деятельности. Развитие речевой деятельности человека. Мы видим, что такие положительные качества, как вежливость, занимают главное место в гладком, успешном и бесконфликтном общении.

Ключевые слова: Психолингвистика, общение, речь, системная структура языка, речевая способность, привлекательность.

KOMMUNIKATIV JARAYONNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Psixolingvistika – nutqiy faoliyatning psixologik va lingvistik tomonlarini va nutqiy kommunikatsiya, individual nutqiy tafakkur faoliyati jarayonida tildan foydalanishning ijtimoiy va psixologik omillari. Insonning dastlabki nutqiy faoliyati rivojlanishi. Muloqotning ravon, muvaffaqiyatli va ziddiyatlarsiz kechishida xushmuomalalik asosiy o'rin egallashi kabi muxim sifatlarni ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Psixolingvistika, kommunikatsiya, nutq, tilning sistem-strukturalari, nutqiy qobiliyat, murojaat.

Kirish. Psixolingvistika – nutqiy faoliyatning psixologik va lingvistik tomonlarini, nutqiy kommunikatsiya va individual nutqiy tafakkur faoliyati jarayonida tildan foydalanishning ijtimoiy va psixologik omillarini o'rganadi. Psixolingvistikaning predmeti sifatida, avvalo, inson faoliyatining o'ziga xos turi sifatida nutqiy faoliyat, uning psixologik mazmuni, strukturalari, namoyon bo'lish usullari, amalga oshirish shakllarini keltirish mumkin. Psixolingvistika maktabi asoschisi A.A.Leontevning ta'kidlashicha, “psixolingvistikaning predmeti nutqiy faoliyatning bir butun va kompleks modelini yaratish qonuniyatini o'rganish sifatida namoyon bo'ladi”.

Psixolingvistika dastlab nutq so'zlovchi va tinglovchi intensiyasi (nutqiy niyat) yoki holatining xabarlar tuzilishiga munosabati, jarayon yoki til tizimi yordamida kodlash mexanizmi (va kodni ochish) sifatida talqin qilingan. Bunda kommunikatsiya ishtirokchilarining “holati” faqat anglash holati sifatida, kommunikatsiya jarayoni esa – bir shaxsdan boshqasiga ba'zi ma'lumotni uzatish jarayoni sifatida tushunilgan.

Keyinchalik ikkihadli (nutqiy qobiliyat- til) emas, uchhadli (nutqiy qobiliyat – nutqiy faoliyat – til) nutqiy faoliyat tizimi g'oyasi paydo bo'ldi, chunki nutqiy faoliyat oldindan berilgan mazmunni kodlash yoki kodni ochish jarayoni tarzida emas, balki shu mazmunning shakllanish jarayoni sifatida tushunila boshlandi.

Bir vaqtning o'zida nutq qobiliyati tushunchasi kengayib, chuqurlashib bordi: u endi nafaqat ong bilan, balki butun inson shaxsi bilan o'zaro munosabatda bo'la boshladi. Nutq faoliyatiga nisbatan talqin o'zgardi: unga muloqot nuqtai nazaridan, muloqotning o'ziga esa – bir shaxsdan boshqasiga

ma'lumot yetkazish sifatida emas, balki jamiyatning (jamoat, ijtimoiy guruh) ichki o'zini boshqaruvi jarayoni sifatida qaray boshlashdi.

Nafaqat nutq qobiliyati va nutqiy faoliyatning, balki tilning talqini ham o'zgardi. Agar oldinlari u kodlash va kodni ochish jarayoni sifatida tushunilgan bo'lsa, endilikda u, birinchi navbatda, shaxsning faoliyati uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan mulkiy va ijtimoiy dunyosi orientir tizimi sifatida talqin qilinmoqda.

Shu tariqa, psixolingvistika predmetiga zamonaviy tavsif berishga harakat qiladigan bo'lsak, u quyidagicha bo'ladi. Psixolingvistikaning predmeti, bir tomondan, shaxsning nutq faoliyati tuzilishi va funksiyasi (vazifasi) bilan, boshqa tomondan, insonning dunyo obrazi haqidagi tasavvurlarini “hosil qiluvchi” sifatida til bilan o'zaro munosabati hisoblanadi[1].

Shu jihatdan murojaat shakllarini psixolingvistik jihatdan o'rganish talab etiladi. Aytish mumkinki, insonning dastlabki nutqiy faoliyati “kimnidir” chaqirish, undan nimanidir so'rash, xabar berish bo'lgan. Suhbatdoshini chaqirish, uni jalb qilish turli kishilik jamiyatida kommunikativ universalisiya ekanligi ma'lum bo'ldi va murojaat kategoriyasida rivojlandi, zero nutq adresatsiyasi kommunikatsiya asosida yotadi.

Odatda, murojaat shakli haqida gapirilganda, eng avval, tinglovchi nazarda tutiladi. Aslida bu murojaatning ikkinchi obyektidir. Tinglovchi ham ijtimoiy – mantiqiy obyekt sifatida, ham lingvistik obyekt sifatida bir-biriga to'la mos tushadi: tinglovchi – sen, ya'ni ijtimoiy shaxs sifatida – o'zga. Buning nutqdagi ifodalanishi - mantiqiy-grammatik shakllanishi ham o'zga, ya'ni ikkinchi shaxs, birlik yoki

ko'plikda bo'ladi. Bu ijtimoiy o'zga – grammatik ikkinchi shaxs so'zlovchining ziddi bo'lib, u fikr qabul qiluvchi sifatidagi ijtimoiy figura bo'lib, nutq va u orqali ifodalanayotgan fikr unga qaratilgan.

Aslini olganda, aloqa-aralashuv va ijtimoiy munosabatlar yuzaga chiqish jarayoni oqimida murojaatning o'zgaga bo'lishi ikkinchi bosqichdir va ayni paytda u yuzaga chiqqan real hodisadir. Jarayonning birinchi bosqichi mavhum bo'lib, u abstrakt holda kechadi. Chunki so'zlovchi har qanday fikr bildirish, xabar-ma'lumot uzatish oldidan o'ziga-o'zi murojaat qiladi, buyruq beradi, ma'lum xabarni berish yoki bermaslik, so'rash yoki so'ramaslik haqida muayyan to'xtamga kelib hukm chiqaradi. Bu o'ziga – birinchi shaxsga yo'naltirilgan jarayondir, lekin uning natijasi va odatda nutqdagi ifodalanuvchi qismi ikkinchi shaxsga bo'lgan murojaat tarzi sifatida shakllanadi.

Ko'rinadiki, ijtimoiy munosabatlar va muloqot jarayonida birinchi bosqich ichki nutq bilan, ya'ni tashqi olam uchun talaffuz etilmaydigan, til materiyasiga pinhoniy o'ralgan nutq bilan bog'lanadi – tovushsiz nutq bilan bog'lanadi, ikkinchi bosqich esa, tashqi nutq bilan, ya'ni talaffuz asosida reallashgan, ro'yobga chiqqan tovushli nutq bilan bog'lanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. N.D.Arutyunova amaliy fikr-mulohazaning psixologik va emotsional faktorlar bilan munosabati haqida gapirar ekan, T.Gobbsning quyidagi fikrini keltiradi: «Ayni bir narsaga nisbatan inson qalbida istak, nafrat, umid va qo'rqinch paydo bo'lsa hamda o'sha narsaning yuzaga chiqish yoki chiqmasligining yaxshi va yomon oqibatlar haqidagi fikr ongimizda navbatma-navbat almashinib tursa,... qalbimizda almashinib turgan istak, nafrat, umid va qo'rqinchlar barchasi amalga oshirilgunga qadar yoki mumkin emas, deb hisoblangunga qadar o'tgan davr o'ylash davri, deb ataladi»...[2]

Tilshunoslik oxirgi o'n yillikda tilning nutqda ishlatilish mexanizmi tadqiqi yaqqol namoyon bo'layotganligi bilan xarakterlanadi. Til o'zicha emas, balki faqat individual organizmda muayyan fikr, nutq tarzida mavjud bo'ladi. Nutq orqali til muloqotga kirishadi, jonli kuchi bilan to'qnash keladi, reallik kasb etadi. Nutqiy muloqot, uning shakllari, differentsiatsiya usullari davrning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar bilan belgilanadi.

Nutqiy muloqot inson faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Muloqotning ravon, muvaffaqiyatli va ziddiyatlarsiz kechishida xushmuomalalik asosiy o'rin egallaydi. Shaxslararo muloqotning asosini tashkil etuvchilardan biri bo'lgan xushmuomalalik shaxsning samarali ijtimoiy o'zaro munosabatga erishishida zarur bo'lgan shaxs xulqini boshqaruvchi muhim jihat hisoblanadi. Murojaat – nutqiy odobning muhim va zarur komponentlaridan biridir. Murojaat muloqotning barcha bosqichida qo'llanadi, uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Murojaat – nutqiy odobning asosiy qismi, chunki bu birlik yordamida suhbatdosh bilan nutqiy aloqa o'rnatiladi va saqlab turiladi, muloqot vaziyatida suhbatdoshlarning maqomi, ularning ijtimoiy va shaxsiy o'zaro munosabatlari boshqarib turiladi.

Murojaatni nutqiy odob tarkibida o'rganish shaxs ruhiyati, biron-bir madaniyatni tushunish imkoniyatini beradi. Nutqiy odob qoidasi bo'yicha xushmuomalalik bilan murojaat qilish har qanday nutqda ishtirok etishi lozim. Murojaatni nutqiy odobning milliy qoidalari va uni nutqda qo'llash o'rinnililiga muvofiq tarzda qo'llash joiz.

Ma'lumot deyilganda umumiy ma'noda xabarni tushunish mumkin. Ma'lumotni yo'llovchi va uni qabul qiluvchining o'zaro munosabatini til ta'minlaydi. Aynan mana shunda uning asosiy funksiyasi – kommunikativlik namoyon bo'ladi. Keyinchalik sistema deb qabul qilingan xabar mazkur sistemaning ma'lumotlilik holatini o'zgartiradi va muayyan

vaziyatlarda qandaydir harakatni amalga oshirish, biron-bir jarayonning boshlanishi yoki tugallanishi stimuli bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Har qanday informatsion jarayon quyidagi komponentlar va ularning munosabatini taqozo qiladi:

Xabar yo'llovchi → Xabar → Xabarni qabul qiluvchi

Turli mulohazalarni tashkil etuvchi xabar boshqarish funksiyasini amalga oshirishga qodir. Xabar moddiy emas. Uni bevosita uzatish yoki qabul qilish mumkin emas. Muayyan fizik signal xabarni tarqatuvchi sifatida namoyon bo'ladi. Xabardan signalga o'tish kodlash jarayonida amalga oshiriladi. Signaldan xabarga o'tish – bu dekodlash jarayonidir.

Kodlash va dekodlash jarayonida muvofiq kod elementlari (nutqiy muloqotda bu funksiyalarni pragmatik, semantik, leksik (lug'at, nominativ) va sintaktik, morfologik, fonologik-fonetik komponentlarni o'z ichiga oladigan til sistemasi bajaradi) qo'llanadi. Bu kodni adresant va adresat bilishi zarur.

Shu tariqa, me'yoriy kirish va chiqish holati terminlari qo'llanadi. "Chiqish" aniq so'zlash, "kirish" esa tushunishning sharoitlarini qamrab oladi. Ularning majmui ham so'zlovchi, ham tinglovchini o'z ichiga oladi – ikkalasi ham mazkur tilni yaxshi biladi; ikkalasi ham ongli tarzda qo'llaydi; so'zlovchining harakatiga majburiyat va tahdidning aloqasi bo'lmaydi; muloqot qilish uchun ularda karlik, afaziya, laringit, kontuziya kabi jismoniy to'sqinliklar yo'q.

Xabar uzatish kommunikatsiya deb ataladi. Kommunikatsiya hayvonot olamida ham, kishilik jamiyatida ham, texnik qurilmalar orasida, kompyuterlar o'rtasida ham yuz beradi. Insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya aksariyat holda adresat (yoki adresatlar) ishtirokida ongli, maqsadga yo'naltirilgan tarzda amalga oshirilishi bilan boshqa turlaridan farqlanadi. Kishilik jamiyatida til (yoki nutq) kommunikatsiyasi hukmronlik qiladi.

Kommunikatsiya adresant va adresat tomonidan kommunikativ birliklar shaklida amalga oshiriladi. Kommunikativ aktlar imo-ishoralar, tana harakati, ko'z qarashlari, ovoz sifatining o'zgarishi (fonatsiya), mimikalarni qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin.

Kommunikatsiya akti muayyan kontekstda amalga oshiriladi va bu kontekst quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- adresant;
- adresat;
- xabar;
- xabar predmeti;
- kommunikantlarning o'zaro munosabati;
- ularning shaxsiy maqsadlari;
- ijtimoiy maqomi va roli;
- ular o'rtasidagi kommunikativ rollarning taqsimlanishi;

- mazkur jamiyatda qabul qilingan kommunikativ hamkorlik qoidalariga (hamkorlik prinsipi, xushmuomalalik prinsipi, kinoya prinsipi va b.) rioya qilish;

- muloqotni amalga oshirish vaqti va joyi;
- qo'llanilayotgan kod (yoki uning turi - subkod);
- muloqotchilarning mazkur kodni bilish darajasi;
- tanlangan aloqa kanali (yoki bir vaqtda qo'llanuvchi kanallar);

- muloqot akti vaziyati (shovqinning mavjud yoki mavjud emasligi, kommunikativ uzilishlarning bor-yo'qligi).

Bu tasnifda etnomadaniy hamda ijtimoiy jihatlar bilan birga har bir kommunikatsiya aktiga ta'sir qiluvchi shaxsiy omillar ham hisobga olinan.

Nutqiy akt bir xil bo'lmaydi. Murojaatlar turli tiplarga ajratiladi. Murojaatlar so'zlovchining tinglovchiga nisbatan xushmuomala munosabatini ham ifodalaydi: kattalarga (*opa, aka, xola*), kichiklarga (*o'g'lim, qizim, bolajon*), tengdoshiga

(*hamkasb, hamqishloq*). So'zlovchining tinglovchiga nisbatan his-tuyg'ulari ramz va metaforalar orqali yetkaziladi: *azizim, oftobim; qo'zichog'im; to'nka*.

Murojaatlarning shakllanishida kommunikantlar o'rtasidagi makon, psixologik va ijtimoiy distansiya kabi muloqotning pragmatik sharoitlari ta'sir qiladi. Millati nomi bilan chaqirish ham "yomon" murojaatlar qatoriga kiritiladi (*O'zbek). Agar millat nomi laqab (nom) sifatida qo'llansa, u mutlaqo vokativ maqomga ega bo'ladi. Pushkinning litseydagi nomi "Fransuz" va Xemingueyning amerikalik qahramoni Robert Djordanning laqabi "ingliz" bo'lgan. Aslida ularning millati boshqa bo'ladi. Pushkinni fransuz tilini yaxshi bilgani va bu tilda she'rlar yozgani uchun Fransuz deb, Robert Djordan esa inglizcha gapirgani uchun Ingliz deb atashgan.

Tahlil va natijalar. Kasblar nomi bilan chaqirish ham "salbiy" murojaatlar qatoriga kiritiladi (*Pedagog!). Bu holatda u o'z kasbini yaxshi bilmaydigan mutaxassis sifatida qabul qilinadi. Biroq muayyan bir vaziyatda kasb belgisini qo'shib murojaat qilish boshqacha ma'no kasb etadi.

Murojaatlarning ikki asosiy vazifasi mavjud:

1) e'tiborni jalb qilish uchun qo'llaniladigan murojaatlar (*chaqiriq yoki call*);

2) muloqotni saqlab turish uchun qo'llaniladigan murojaatlar (*address*). [6]

Buni quyidagicha izohlash mumkin. Masalan, *Ofitsiant!* murojaatida kasb nomi shu kasb sohibining restoranda ishlovchi roliga aylanadi. *Ofitsiant!* – bu murojaat restoranga tashrif buyuruvchining ofitsiantga bo'lgan murojaatidir. Agar ofitsiant tashrif buyuruvchiga e'tiborini qaratgan bo'lsa, u endi unga ofitsiant so'zi bilan murojaat qilmaydi: rol nomlari **kommunikatsiyani saqlab turish** uchun emas, balki faqat **chaqiruv (calls) uchun** qo'llaniladi. Bu vaziyatda "ofitsiant" kasb emas, rol vazifasini bajaradi.

Kasb va mashg'ulot nomlari hamda millat nomlari muayyan vaziyatlardagina emas, balki nom (laqab) qo'yishda ham boy manba bo'lib xizmat qiladi: qassob, Toir tegirmonchi. Ko'rib o'tilgan parametrlar murojaat rollari bo'yicha leksemalarning tanlanishini nazorat qiladi, xususan, o'ziga xos "g'azablantiruvchi ta'sir"ni yuzaga keltiruvchi "salbiy" murojaatlardan vokativ qo'llash imkonini beradi.

Yuqorida turli tipdagi vokativlarda bir xil ism guruhlarining turlicha qo'llanishi ko'rsatib o'tildi. Ba'zi nomlar har qanday pragmatik sharoitda ham qo'llanishi mumkin. Ularga kishi nomlari (Komila!), aksariyat qarindoshlik otlari (ona!), ba'zi munosabat otlari (Hamkasb! O'rtoqlar!) kiradi. Boshqa nomlar ham keng qo'llanish diapazoniga ega, lekin shunga qaramay ularning qo'llanishi ismlarga qaraganda biroz chegaralangan. Bular familiya (Salimov!), muayyan vaziyatlardagi ishtirokchilarning nomlari (Guvoh!; Ma'ruzachi!; Ofitsiant!) kabilardir. Ismlarning yana shunday keng yoyilgan bir turi borki, ular deyarli murojaat vazifasida qo'llanmaydi (Vrach! Taksichi! Talaba! Yapon!). Bu turdagi leksemalar da'vat va shiorlarda qo'llanishi mumkin.

Jamiyat hayotining turli davrlarida turli leksik murojaat shakllari uchraydiki, ular insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tarixiy o'zgarishini o'zida aks ettiradi. Zamonaviy nutqiy amaliyotda muayyan ijtimoiy-nutqiy doirada sevimli bo'lib qolgan yoki keng yoyilgan, muqim o'rnatilgan, jamiyatda insonlarning o'zaro munosabatini aks ettiruvchi murojaatlar qo'llanmoqda.

Aksariyat hollarda diqqatni jalb qilish uchun quyidagi shakllar qo'llanadi:

Kechirasiz – bu murojaat notanish bo'lgan kishidan nimanidir so'rashda qo'llaniladigan, umumqabul qilingan shakl hisoblanadi. Bu model asosan ko'chada notanish kishi

bilan muloqotni boshlash uchun qo'llanadi. Mazkur shaklning asosiy xususiyati shundaki, bunda qoida tarzidagi "Salom", "Assalomu alaykum", "Xayrli tong", "Xayrli kun" kabi salomlashish shakllari qo'llanmaydi. Ularning o'rniga adresatning diqqatini jalb qiluvchi qisqa luqmalar ishlatiladi. Bu holatni mazkur muloqotning qisqa vaqt davom etishi, suhbatdoshlar, avvalo, vaqtni tejash va bir-birini urintirmaslik prinsipiga amal qilishi bilan izohlash mumkin.

Masalan:

A: Kechirasiz!

B: Ha?

A: 87-avtobus o'tib ketmadimi?

Mazkur dialogda suhbat so'zlovchining "Kechirasiz" jumlasini bilan o'ziga diqqatni qaratib olgandan so'ng ikkinchi so'zlovchining "Ha" jumlasini bilan munosabat bildirishi orqali boshlanib ketgan.

Kechirasiz jumlasini, shuningdek, biron joyga borish uchun yo'lni so'rashda ham qo'llanadi.

Kechirasiz, bu yerdan teatrga qanday borsa bo'ladi?

Uzr shaklidan ham murojaat birligi sifatida foydalaniladi va bu hurmat, bezovta qilayotganidan uzr so'rash ma'nolarini ifodalaydi. Uzoqlashib ulgurgan notanish kishining (masalan, kitobini, hamyoni yoki biron narsasini unutib qoldirayotgan yoki tushirib qoldirgan) e'tiborini jalb qilish uchun uning yoshi, jinsi, vaziyatga qarab turli shaklda: **hoy bola, hoy, qizim, hoy, singlim, uka** tarzida murojaat qilinadi, agar u yaqinda turgan bo'lsa "kechirasiz" so'zi bilan murojaat qilinadi.

Shuningdek, uslubiy jihatdan kuchliroq shakllar ham mavjud: **uzr, bezovta qilmadimmi...** murojaat shaklini tanlash iltimos mazmuniga bog'liq bo'ladi. Ikkinchi shakl odatda murojaat qiluvchi shaxsdan qandaydir harakatni bajarishga undash (oynani ochish, yopish, biron narsani olib berish va h.k.)da qo'llanadi. Masalan,

Bezovta qilganim uchun uzr, soat necha bo'lganini ayta olmaydizmi?

Lekin yuqorida keltirilgan misolda iltimos tarzini ifodalamaydi.

Diqqatni jalb qilish uchun savol tarzidagi quyidagi murojaatlar qo'llanadi: **kechirasiz, aytolmaydizmi...**

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda murojaatlarning psixolingvistik funksiyasi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Safarbar etuvchi – topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishga tafakkurni "yo'naltirish".

- O'rmini to'ldiruvchi – muayyan hissiy holat hisobiga qaror qabul qilish.

Ta'kidlash joizki, inson kommunikatsiyasi muayyan etnik madaniyat va muayyan tarixiy davrning ijtimoiy jamoasi talab va qoidalariga bo'ysunadi. Ular til tizimining fonologik, grammatik va leksik xususiyatlarida o'z aksini topadi. Boshqa insonlar bilan muvaffaqiyatli muloqotga kirishni istaganlar muayyan ijtimoiy guruhlar, boshqa til egalari mentaliteti ichiga kirish talab etiladi.

Xulosa. Psixolingvistik – nutqiy faoliyatning psixologik va lingvistik tomonlarini, shu bilan nutqiy kommunikatsiya va individual nutqiy tafakkur faoliyati jarayonlarini shaxs faoliyatida muxim ahamiyat kasb yetishini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, inson kommunikatsiyasi muayyan etnik madaniyat, muayyan tarixiy davr va ijtimoiylashuv maxsuli nutq bo'lib u insonlar o'rtasida axborot almashinuv vositasidir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda murojaatlarning psixolingvistik funksiyasi sifatida topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishga tafakkurni "yo'naltirish" va muayyan hissiy holat hisobiga qaror qabul qilish kabi sifatlarni ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. Уч. М., 1997. 287 с.
2. Акбарова З. Мурожаат моҳияти ва унинг ташкил этувчилари. Фил.фан.номз.дисс., Т. 2006.
3. Арутюнова Н.Д. Практическое рассуждение и язык. Сб. : «Сущность, развитие и функции языка» М.: Наука, 1987, с. 6.
4. Янко Т. Лексическая семантика обращений: семантические особенности русских антропонимов и других имён, обозначающих людей // Язык и речевая деятельность. Т. 11. Спб. 2011. С 239-255.
5. СПЕЦИФИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕН-ВОЛЕЙБОЛИСТОВ
6. ША Ахмедов, ЎБ Шамсиев - Uzbek Scholar Journal, 2022
7. Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. - М.: Астрель, АСТ, 2007.
8. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. - М.: Наука, 1969.